

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
Гаффоров Шухрат Насриевич	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
Shohruzbek Ruziyev	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
Sharipova Shahlo Istamovna	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILİYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI	92
Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li	
INVESTITSIYALAR BUXGALTERIYA HISOBİ OBYEKTI SIFATIDA.....	99
I.Boymurodov	



INVESTITSİYALAR BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDA

I.Boymurodov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalar buxgalteriya hisobi va auditning mustaqil obyekti sifatida tadqiq etilgan. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, ularning real, moliyaviy va intellektual turlari hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosidagi tasnifi tahlil qilingan. Muallif kapital va investitsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rib chiqib, investitsiya qilingan kapitalni tarixiy, tiklanish va diskontlangan qiymat asosida baholash konsepsiyasi tadqiq etildi. Shuningdek, maqolada ulushli ishtirok etish usuli va konsolidatsiyalashgan hisobotning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, buxgalteriya hisobi, kapital, real investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, intellektual mulk, investitsiya ko'chmas mulki, ulushli ishtirok etish usuli, konsolidatsiya, kapitalni baholash.

Abstract: This article examines investments as an independent object of accounting and auditing. The economic essence of investments, their real, financial, and intellectual types, as well as their classification based on the current legislation of the Republic of Uzbekistan, are analyzed. The author explores the inextricable link between capital and investment, proposing a concept for evaluating invested capital based on historical, replacement, and discounted values. Furthermore, the article highlights the significance of the equity method and consolidated financial statements.

Keywords: investments, accounting, capital, real investments, financial investments, intellectual property, investment property, equity method, consolidation, capital valuation.

Аннотация: В данной статье инвестиции исследуются как самостоятельный объект бухгалтерского учета и аудита. Анализируется экономическое содержание инвестиций, их реальные, финансовые и интеллектуальные виды, а также классификация на основе действующего законодательства Республики Узбекистан. Автор рассматривает неразрывную связь между капиталом и инвестициями, предлагая концепцию оценки инвестированного капитала. Также в статье раскрывается значимость метода долевого участия и консолидированной отчетности.

Ключевые слова: инвестиции, бухгалтерский учет, капитал, реальные инвестиции, финансовые инвестиции, интеллектуальная собственность, инвестиционная недвижимость, метод долевого участия, консолидация, оценка капитала.

KIRISH

Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan ichki va tashqi investitsiyalar hajmining ortib borishi xo'jalik yurituvchi subyektlarda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish, ularning buxgalteriya hisobida to'g'ri va ishonchli aks ettirilishini talab etmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiy integratsiya sharoitida investitsiyalarning turlari, moliyalashtirish manbalari va ular bilan bog'liq operatsiyalar ko'lamining kengayishi buxgalteriya hisobida ularni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirish masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda investitsiyalar korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy manbasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois investitsiyalarni buxgalteriya hisobining mustaqil obyekti sifatida o'rganish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish va hisobda aks ettirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining keng joriy etilishi investitsiyalar hisobiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Xususan, moliyaviy investitsiyalar, uzoq muddatli kapital qo'yilmalar, investitsion mulk va boshqa investitsiya obyektlarini baholash hamda hisobotda aks ettirishda xalqaro yondashuvlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa milliy buxgalteriya hisobi tizimida investitsiyalar hisobini takomillashtirish, uni xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish va axborotning ishonchligini ta'minlashni talab etadi.

Shuningdek, investitsiyalar buxgalteriya hisobining obyekti sifatida korxonaning moliyaviy holati, investitsion jozibadorligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun investitsiyalar to'g'risidagi ishonchli buxgalteriya axboroti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, mavjud masalalarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha

ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar — iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini ta'minlovchi kategoriyadir. Buxgalteriya hisobi maqsadlarida investitsiyalar kapital qo'yilmalar, investitsion mulk, moliyaviy investitsiyalar shaklida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan investitsiyalar deganda quyidagilar tushuniladigan bo'ldi: «investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar» [1]. Mazkur qonunda keltirilgan ta'rifga muvofiq investitsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi: mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini, maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, qimmatli qog'ozlarni; moddiy qimmatliklarni, intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiyalarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra real investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, intellektual investitsiyalarga ajratish mumkin.

Real investitsiyalar — moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini ko'paytirish hamda asosiy vositalarni texnik jihozlanishni yangilash, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va qo'llab-quvvatlash, yangi qurilish maqsadida kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan kapital sarmoyalardir. Bunday turdagi investitsiyalar buxgalteriya hisobida kapital qo'yilmalar sifatida tan olinadi.

Moliyaviy investitsiyalar — foizlar, dividendlar, qiymatning oshishi hisobiga daromad olish maqsadida tashkilot tasarrufidagi aktivlar hisoblanadi.

Intellektual investitsiyalar — tashkilotning kelajakda iqtisodiy naf olish maqsadida intellektual mulk obyektlariga, kadrlar salohiyatini oshirishga yoki ilmiy ishlanmalarga yo'naltirilgan mablag'laridir. Bunday turdagi investitsiyalar moddiy shaklga ega emasligi bilan ajralib turadi va buxgalteriya hisobida aksariyat hollarda nomoddiy aktivlar yoxud davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

Shuningdek, investorlar riskni kamaytirish va daromadlarini barqarorlashtirish maqsadida investitsiya portfelini shakllantirishi mumkin. Investitsiya portfelida alohida aktivni emas, mablag'larni diversifikatsiya asosida joylashtiradi. Investitsiya portfeli aksiya, obligatsiya, valyuta, ko'chmas mulk jamlanmasidan tashkil topishi mumkin.

Investitsiyalarning bir vaqtning o'zida ham buxgalteriya hisobi obyekti, ham auditning obyekti sifatida talqin qilinishining dolzarbligi hisobda jarayonli iqtisodiy hodisalarni aks ettirishning murakkabligi va zarurligi bilan bog'liq. Investitsiyalar statik emas, balki dinamik iqtisodiy hodisa bo'lganligi sababli, buxgalteriya hisobi buni hujjatli ravishda aks ettirishi lozim. Shu bilan birga, investitsiyalarning tarkibiy tuzilishi ularning buxgalteriya hisobini kelib tushish, egalik qilish va taqsimlash belgilari bo'yicha tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi. Investitsiyalar hisobi tashkilot holatining auditi uchun katta ahamiyatga ega. Investitsiyalarni kapitalning bir turi deb talqin qilish mumkin. Zamonaviy iqtisodiyot fanida qabul qilingan «kapital» tushunchasi konsepsiyalarining tahlili muallifga uning mohiyati bo'yicha quyidagi asosiy konsepsiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Kapital — bu foiz manbayi, ya'ni uzoq vaqt davomida muntazam daromad keltiradigan har qanday mablag' manbayi [2]. Kapital — bu ko'proq miqdordagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida yaratiladigan uzoq muddatli foydalanish resursi [3].

D. Rikkardo: «Boylikning ishlab chiqarishga jalb qilingan va mehnatni harakatga keltirish uchun zarur bo'lgan qismi» [4].

J. S. Mill: «O'tmishdagi mehnat mahsulotlarining oldindan to'plangan zaxirasi bo'lib, u ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan binolar, asbob-uskunalar va materiallarni, shuningdek, ishlab chiqarish jarayoni vaqtida ishchilar uchun oziq-ovqat va boshqa yashash vositalarini ta'minlaydi» [5].

A. Marshall: «Ularsiz ishlab chiqarish bir xil samaradorlik bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan, ammo tabiatning bepul in'omi hisoblanmaydigan ashyolar majmui» [6].

Zamonaviy tadqiqotchilar [7] ko'proq kapital mohiyatiga nisbatan moliyaviy yondashuvga amal qilib, uni tashkilot faoliyatining muhim strategik vositasi, usiz tashkilot faoliyatini samarali tashkil etish murakkablashadi deb hisoblaydilar. Ushbu yondashuvda audit nuqtai nazaridan kapital va investitsiya qilish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aks etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda investitsiyalarni buxgalteriya hisobining mustaqil obyekti sifatida o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan



foydalanildi. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, ularning real, moliyaviy va intellektual turlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda buxgalteriya hisobi tamoyillari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, investitsiya qilingan kapitalni baholash, ulushli ishtirok etish usuli va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi yangi buxgalteriya obyektlarining milliy hisob amaliyotimizga kirib kelishiga olib keldi [8]. Xususan, shunday obyektlardan biri investitsiya ko'chmas mulki tushunchasidir. Tashkilotning ko'chmas mulklarini o'zlarining asosiy operatsion faoliyatida foydalanish uchun emas, balki ijaradan daromad olish yoki qiymatining oshishidan daromad olishni ko'zlab ushlab turiladigan aktiv — investitsiya ko'chmas mulki sifatida buxgalteriya hisobida tan olinadi.

Bizning fikrimizcha, investitsiya kapital qo'yilmalar tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Biroq real investitsiyalarning katta qismini kapital qo'yilmalar tashkil etadi. Investitsiyalarni tashkilot kapitali qiymatining ifodasi sifatida ularni qo'llanish sohasi hamda keltiradigan iqtisodiy natijasiga muvofiq ravishda guruhlash mumkin. Xususan, bunday yondashuvga ko'ra investitsiyalar asosiy faoliyatga yo'naltirilgan kapital va asosiy faoliyatdan boshqa faoliyat turlariga ajratilgan kapital turlariga ajratiladi. Mazkur tasniflash kapitaldan ishlab chiqarish jarayonida oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, uning iqtisodiy qaytimini oshirishda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kapital harakati va investitsiya qilishning jarayonli xarakteri moliyaviy resurslarning aylanish jarayonida funksional shakllarining almashinishida o'z ifodasini topadi va yakunda ajratilgan moliyaviy mablag'larning ma'lum bir o'sish bilan qaytishini ta'minlaydi. Tashkilotlarning moliyaviy resurslari va kapitalini qayta ishlab chiqarish ularning birgalikdagi aylanishi jarayonida amalga oshiriladi [7].

Tashkilot o'zining xo'jalik faoliyatini kengaytirish maqsadida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini uchta guruhga ajratishi mumkin: xususiy mablag'lar, xususiy mablag'larga tenglashtirilgan mablag'lar va qarz mablag'lari. Xususiy kapital har qanday tashkilotning xo'jalik faoliyatini boshlash va davom ettirish uchun asos hisoblanadi. Uning hajmi mulkdorlarning tashkilotga ta'siri va mustaqillik darajasini belgilaydi. Tashkilot foyda olish maqsadida tashkil etiladi va bu maqsadni u faqat o'z kapitalini saqlash va ko'paytirish sharti bilangina amalga oshirishi mumkin.

Xususiy kapital bir nechta manbalardan shakllanadi: mulkdorlar tomonidan pul mablag'lari va boshqa aktivlarning kiritilishi; barcha xarajatlar qoplangandan keyin korxonada ixtiyorida qoladigan daromadlar (foyda) summasining jamlanishi; amortizatsiya ajratmalarining jamlanishi.

Bizning fikrimizcha, xususiy kapital shakllanish manbalariga ko'ra ikki asosiy toifaga bo'linadi: investitsiya qilingan kapital, ya'ni mulkdorlar tomonidan kiritilgan yoki to'langan kapital, hamda ishlab topilgan kapital, ya'ni korxonada faoliyati natijasida shakllangan taqsimlanmagan foyda.

Investitsiya qilingan xususiy kapital — bu oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bo'yicha yig'indisi, shuningdek, kelib chiqish manbalari aksiyadorlar bo'yicha bo'linishi mumkin bo'lgan qo'shimcha kiritilgan kapitaldir. Albatta, buxgalteriya hisobida xususiy kapitalga investitsiyalar boshqa tashkilot tomonidan kiritilganda, moliyaviy hisobotda investitsiya sifatida aks ettiriladi. Investitsiya kiritayotgan tashkilot investitsiya obyektining asosiy xo'jalik faoliyatiga ta'sir o'tkazishiga qarab moliyaviy hisobotda alohida aks ettirilishi mumkin. Agar investitsiya qilayotgan tashkilot investitsiya obyektining kapitalida 20% gacha ulushga ega bo'lsa, unda moliyaviy hisobotda qimmatli qog'ozlar sifatida tan olinib, undan dividend ko'rinishidagi daromad olinadi. Bunda dividend miqdori aksiyadorlar yig'ilishida taqsimlanmagan foydani taqsimlash bo'yicha qaror asosida belgilanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, bunday holatda ayrim istisnoni, ya'ni agar investitsiya obyektida qarorlar qabul qilish jarayoniga ahamiyatli ta'sir o'tkazsa, unda investor moliyaviy hisobotida ulushli ishtirok etish usuli orqali investitsiyalarni aks ettiradi. Investitsiya obyektining kapitalida 20–50% gacha ulushga egalik qilinsa, unda ta'sir ostidagi yoki qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar sifatida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Bu holatda ham ulushli ishtirok usulida investitsiya hisobga olinadi. Investitsiya objekti kapitalida 50% va undan ortig'iga egalik qilinsa, unda moliyaviy hisobotda investitsiyani bir qatorda ko'rsatish yetarli emas. Bu holatda bosh tashkilot tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirish talab etiladi.

Ishlab topilgan kapital — bu korxonada kiritilgan kapital aylanishi natijasida oladigan qo'shimcha daromaddir. Aynan ishlab topilgan kapital yoki tashkilot foydasi kiritilgan kapital aylanishining yakuniy natijasi va samaradorlik o'lchovi hisoblanadi.

Moliyalashtirish manbalarining ikkinchi guruhi — bu xususiy kapitalga tenglashtirilgan mablag'lar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: asosiy vositalar bilan bog'liq sug'urta hodisalaridan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun olinadigan sug'urta tovonlari, budget ajratmalari, qaytarmaslik sharti bilan olinadigan mablag'lar.



Uzoq muddatli investitsiya loyhasini moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratilganda, ularni maqsadli moliyalashtirish sifatida zaxiraga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Qarz mablag'lari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum muddatga jalb qilingan mablag'larini o'z ichiga oladi va ular belgilangan muddatlarda qaytarilishi lozim. Ularga bank kreditlari, qarzlari, veksellar, chet el yuridik shaxslarining kreditlari va boshqa qarz olish shakllari kiradi.

Shu munosabat bilan, investitsiyaviy faollik, birinchi navbatda, tashkilot jalb qila oladigan mablag'lar hajmi bilan belgilanadi. Bu borada quyidagi tushunchalarni ajratib ko'rsatish lozim deb topdik: investitsiya resurslari — tashkilot ixtiyorida mavjud bo'lgan, ya'ni mavjud resurslar; investitsiya salohiyati — tashkilot moliya bozorida safarbar qilishi mumkin bo'lgan resurslar; investitsiya ehtiyojlari — tashkilotga investitsiya dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar hajmi; investitsiya dasturi — investitsiya strategiyasi doirasida ishlab chiqilgan, yo'nalishlar, muddatlar va investitsiya hajmlarini o'z ichiga olgan dastur.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobida investitsiya qilingan kapitalni qiymat jihatidan o'lchashning taklif etilayotgan konsepsiyasi ushbu jihatlarni kompleks hisobga olishga asoslangan va quyidagilardan foydalanishni nazarda tutadi: kapitalni shakllantirishda aktivlarni tarixiy qiymat bo'yicha, majburiyatlarni esa nominal qiymat bo'yicha baholash; ishlab chiqarishga avanslangan real kapitalni saqlab qolish uchun tiklanish qiymatini baholash (bu qayta baholash va amortizatsiya hisobi bilan bog'liq); tashkilot prognoz qilinayotgan bozorga yo'naltirilgan qiymatini yoki risk salohiyatini aniqlash uchun diskontlangan qiymatdan foydalanish; faoliyat to'xtatilganda yoki oldi-sotdi bitimlarida haqqoniy qiymatni aniqlash uchun bozor yondashuvi.

Tashkilotning rivojlanishi, eng avvalo, xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishni talab qiladi, chunki bu uning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlaydi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, asosiy e'tibor xususiy kapital qiymatini uning alohida elementlari va yaxlit holda baholashga qaratilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalarning buxgalteriya hisobining obyekt sifatidagi tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

Ishlab chiqarishga ajratilgan kapital o'z harakati jarayonida kattaroq qiymat keltiradi. Real investitsiyalar soha yoki korxonalar rivojlanishining eng keng tarqalgan shaklidir.

Xususiy kapital har qanday korxonalar faoliyati uchun asosdir. Uning hajmi mustaqillik darajasini va investitsiyaviy risklarning oldini olish imkoniyatini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobida investitsiya qilingan kapitalni o'lchash tarixiy, tiklanish va diskontlangan qiymat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-598-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/4664142>
2. Подшиваленко Г. П., Лахметкина Н. И., Макарова М. В. и др. Инвестиции: учебное пособие. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: КНОРУС, 2006. — 200 с.
3. Hyman D. N. Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy. — 10th ed. — Mason: South-Western Cengage Learning, 2011.
4. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. — London: John Murray, 1817. — 589 p.
5. Милль Дж. С. Основы политической экономии: в 3 т. Т. 1. — М.: Прогресс, 1980. — 495 с.
6. Маршалл А. Принципы политической экономии: в 3 т. Т. 1. — М.: Прогресс, 1984. — 415 с.
7. Сысоева Е. Ф. Финансовые ресурсы и капитал организаций: сущность, воспроизводство, управление: автореф. дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.10. — Волгоград, 2008. — 40 с.
8. Севастьянова Е. В. Основы гармонизации российской системы бухгалтерского учета с международными стандартами финансовой отчетности: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.12. — М., 2000. — 152 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100